



## TOPONYMS IN THE WORK “INSCRIPTIONS ON THE BORDER OF THE NOTEBOOK”

**Narbayeva Xosiyat**

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of  
Turkic Languages, 2nd level student of Uzbek language education in  
foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11190443>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 13<sup>th</sup> May 2024

Online: 14<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Onomastics, toponyms,  
choronims, oikonyms,  
hydronyms, comonyms,  
oronyms, ergonims, O'tkir  
Hashimov, “Writings on the  
edge of the notebook”.*

### ABSTRACT

*In this article, the toponyms in Otkir Hashimov's work  
“Inscriptions on the border of the notebook” are divided  
into groups. Brief information about the types of  
toponyms was given.*

## “DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR” ASARIDAGI TOPONIMLAR

**Narbayeva Xosiyat**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli  
guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11190443>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 13<sup>th</sup> May 2024

Online: 14<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Onomastika, toponim,  
xoronimlar, oykonimlar,  
gidronim, komonim, oronim,  
ergonim, O'tkir Hoshimov,  
“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”  
asari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning “Daftar  
hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi toponimlar guruhlariga  
ajratildi. Toponimlarning turlari haqida qisqacha  
ma'lumot berildi.*

Yurtimiz Mustaqillikka erishgandan keyin toponimlarni tadqiq qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshiriladi. Mustamlaka vaqtda barcha joy nomlari ruslashtirilgan edi. Mustaqillikdan keyin har bir hudud o'zining avvalgi nomi bilan yoki yangi nom bilan ataladigan bo'ldi. Har bir joy nomi o'sha hududda yashaydigan aholining, xalqning o'tmishi, madaniyati, urf-odatlarini, yashash tarsi haqida ma'lumot beradi. Olimlar tomonidan har bir hududning toponimlarini o'rganish tarix sahifalarini ham ochar edi. <sup>1</sup>O'zbek toponimikasini

<sup>1</sup> B. Yo'ldoshev O'zbek onomastikasi masalalari Samarqand - 2011



ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. O'tgan davr mobaynida o'zbek toponimikasini o'rganish bo'yicha juda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida taniqli geograf olim H. Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi. Bu asarni Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sig'a o'xshatsak aham bo'ladi. Chunki, olim qaysi hududga bormasin u yerning nomi va bu nomning uning kelib chiqish sabablari, yo'llarda quduqlar bor yoki yo'qligi, hayvonot dunyosi va iqlimi, shuning bilan birgalikda xalqning nima bilan shug'illanishi, afsona-rivoyatlar haqida ma'lumot berilgan. <sup>2</sup>T. Nafasov, S. Qoraev, Z. Do'simov, B. O'rinboev, T. Rahmatov, J. Latipov, T. Enazarov, N. Oxunov, S. Nayimov kabi olimlarning say'i harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshiriladi. Haqiqatdan ham yurtimizdagi toponimlarning nomining o'zida qancha ma'no bor. Toponimlarning o'z navbatida ichki guruhlariga ajratiladi. Hozirgi kunda ham toponimlarning o'rganilmagan guruhlari ko'p. O'zbekistonda eng ko'p o'rganilayotgan onomastik birliklar orasida eng ko'p tadqiq qilingan sohasi toponimika hisoblanadi. Asarlarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish endi rivojlanayotgan sohalardan hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridagi toponimlarni tadqiq qilamiz. O'tkir Hoshimovning bu asari haligacha kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Asarda yozuvchi hayoti davomida anglab yetgan haqiqatlarni yozgan desak ham bo'ladi. Adib bu asrni qirq yil mobaynida yozgan.

Toponimlar o'z navbatida oronim, nekronim, xoronim, dromonim, gidronim, litonim, drimonim, insulonim, oykonim, glyatsionim, speleonim kabi ichki guruhlariga bo'linadi.

**Qit'a nomlari** Sohibqiron Amir Temur *Yevroosiyoning* yarmini tasarrufga oldi. Shoh-Jahon dunyodagi yeti mo'jizaning biriga tatigulik "*Tojmahal*"ni bunyod etdi. *Amerika qit'asida* o'ta zaharli ilon bor: chinqiroq ilon.

Toponim turi bo'mish **xoronimlarga** misollar: *Yaponiyadan* bir guruh martabali mehmonlar tashrif buyurishdi. *Yaponiya, Koreya, Xitoy* singari mamlakatlarda shaftoliga ayri-ayri ixlos qo'yishlarini eslab, haydovchidan mashinani to'xtatishni so'radim. Avval *Germaniyaga* uchdik. Undan *Amerikaga*. So'ng *Shveytsariyaga*. Keyin *Angliyaga...* *Afrika* qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo'yish, qatl etish degan gaplar yo'q ekan. *Avstraliya* bilan Kanada orasi yigirma ming chaqirim. ...*Chechenistonda* urush bo'ldi...

O'n to'qqizinchi asr oxirlarida *Turkistonda* temir yo'l quriladi. O'zbekiston "qo'shib yozuvchilar", "poraxo'rlar", "boqimandalar" yurti ekan! Mo'g'ullar *Movarounnahrni* bosib, qirg'in qilganida bir ayol tirik qolishning yo'lini topibdi. *Afg'onistonda* urush bo'ldi...

Toponimning turi bo'lmish **oykonimlarning urbanonimlarga** "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asridan misol keltiramiz. Shu kishiga hamroh bo'lib *Samarqandga* bordik. Nihoyat *Londondan Toshkentga* uchadigan bo'ldik. Amir Umarxon - *Qo'qon* xoni bo'lgan. ...Kelasi hafta *Rapqondagi* boyning huzuriga "chopar" borib, "xushxabar" yetkazadi. *Qo'qon* xoni bu yoqda, *Buxoro* amiri u yoqda o'z haramidagi xonimchalar bilan bazmi-jamshid qilishdan bo'shamagani uchun! - *Kecha Chirchiqqa* boruvdik. -Diqqat! Diqqat! *Urgench* - Toshkent

<sup>2</sup> B. Yo'ldoshev O'zbek onomastikasi masalalari Samarqand - 2011



yo'nalishi bo'yicha yigirma to'rtinchi reys bilan uchib kelgan yo'lovchi Teshaboy Boltaboyevich Dehqonboyev! Maratik – *Nukusda*. Internatda.

-*Parijdagi* ko'rikda uch yulduzlik arman konyagi oltin medal oldi. Sizlarda, *Los-Anjelosda* yashaydigan ota vafot etib qolsa-yu, *Vashingtonda* turadigan o'g'il vazirlikdagi yumushlari ko'pligi uchun dafn marosimiga bormasa, uni birov malomat qilmaydi. *Moskvadan* kelgan juda "katta" odam juda muhim mavzuda doklad qilarkan. - *Kremlgacha* borishini, tez kunda gunohsizligim isbotlanib, ozodlikka chiqishimni aytdi. Avstraliya bilan *Kanada* orasi yigirma ming chaqirim. – Shoir ma'liming *Magadanda!* – dedi qo'lini paxsa qilib. Bir kuni *Sochidagi* dendrariyga kirdik. *Pekinga*. *Stambulga*. *Dubayga*... osonmi? Har qadamda "ment!" *Jezqazonning* qishini ko'rmagansan-da!

Toponimga turi bo'lgan **gidronimlarga** misollar: *Atlantika okeani* ustida... (Atlantika okeani shimolda Grenlandiya va Islandiya orollari, sharqda Yevropa hamda Afrika, g'arbda Shimoliy va Janubiy Amerika, janubida Antarktida orasida joylashgan) Bolaligimda *Qonqus anhorida* cho'milishni yaxshi ko'rardim. (Anhor (Qonqus) Bunyodkor shoh ko'chasi bo'ylab oqib o'tadi) **Buloq** Ohangarondan qirq chaqirimcha narida, tog' tepasida *Arshon buva* degan buloq bor.

**Xoronimlar** toponim turi bo'lib viloyat, tuman va shtatlarni tadqiq qiladi. -*Andijonga!* – debdi Nodirabegim kulimsirab. (Andijon-O'zbekistonning Andijon viloyatida joylashgan shahar) Bizda *Surxondaryoning* olis qishlog'ida yashaydigan ota vafot etib qolsa-yu, Toshkentda turadigan o'g'il vazirlikda ishi ko'payib ketgani sabab otasini so'nggi manzilga o'z yelkasida ko'tarib bormasa, bunaqa vazirdan hamma yuz o'giradi. (Surxondaryo - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat) *Qashqadaryoga* borganimizda falon qishloqda tabarruk yoshga kirgan bova bor, bir ziyorat qilsak, deb qolishdi. (O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat). Men qassobxonada ishlayman. Mezbonlar bizni *Urgutga* - To'pxona degan joyga olib borishdi. (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Shahar, tuman markazi) Piyoz bo'lmagandayam unaqa-bunaqasi emas. *Oltiariqning* piyozi! (O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyatidagi eng mashhur va iqtisodiy barqaror tuman). *Qorako'lga* boradigan bo'ldik. (O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatida joylashgan tuman). *Ohangarondan* qirq chaqirimcha narida, tog' tepasida *Arshon buva* degan buloq bor. (O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatida joylashgan tuman). Ulim matasekilda *Kosong'a* dovur oborib keldi. (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyatida joylashgan tuman).

Toponim turi bo'lmish **komonimlarga** misollar. *Qovunchilik* dehqonlar qanchadan-qancha tuya, ot atavayu eshak aravaga ortib, paxta olib keladilar. (O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan. Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf tavallud topgan qishloq). Bu qishloqning nomi "*Telbaqishloq*" bo'lib, odamlarning fe'li ham shunga yarasha ekan: ikki qo'shni bir-biri bilan qasdlashib qolsa, o'ziga indamas ekanu, alamini mehmondan olarkan. Bir gal azza-bazza Qo'qon bozoriga kirib, *Cho'ng'araning* guruchidan xarid qildik: Said Ahmad aka - o'ttiz kilo, men o'ttiz kilo. (O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi qishloq).

**Mahalla** *O'rikzorda* dang'illama imorat solyapti. (O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrida joylashgan mahalla).

Toponimlarning **oronimlar** turiga misollar. Ayrimlarining qoldig'i-yu nomi qolgan xolos: *Oqtapa*, *To'ytapa*, *Ko'ktepa*, *Choshtepa*, *Xontepa*, *Beshtepa*...



Toponimlarning **agoronimlar** turiga misollar. *“Otchopar” bozorida* qadrdon do‘stimni uchratib qoldim. -Bo‘g‘anda qandoq! *Chiyali bozordi* ko‘rdim.

Bugungi kunda toponimlar onomastikaning eng ko‘p o‘rganilgan turi hisoblanadi. Muhabbat Xudoyorovanning *“Onomastika”* o‘quv qo‘llanmasida toponimlar o‘n bitta guruhlarga ajratiladi. Bular oronimlar, gidronimlar, xoronimlar, litonimlar, oykonim, nekronimlar, drimonimlar, dromonimlar, insulonim, glyatsionimlar, speleonim kabi guruhlarga ajratilgan. Badiiy asrdagi toponimlarni tadqiq qilish endi rivoj topayapti. Asardagi toponimlarni aniqlash va ularni guruhlarga ajratish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

## References:

1. B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyorova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangi avlod” 2007